

# Bolalar Muqaddas Kitobi Tasvirlab beradi



Nuh  
payg'ambar va  
buyuk to'fon



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:

Byron Unger; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:

M. Maillot; Tammy S.

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children

[www.M1914.org](http://www.M1914.org)

BFC

PO Box 3

Winnipeg, MB R3C 2G1

Canada

©2013 Bible for Children, Inc.


Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusha ko'chirishingiz mumkin.

Lekin u sotilmaydi.




Nuh payg'ambar hudojo'y inson edi. Boshqa barcha odamlar Hudoga itoat qilmaydigan buzug odamlar edilar. Bir kuni Hudovand Nuhga shunday dedi: "men yer yuzidagi barcha insonlarni


qirib tashlayman, Faqatgina sen va sening oilang qutulasizlar."



“yer yuzini to'fon bosib yerni buzib  
tashlaydi sen esa Katta kema qurib  
oilang va ko'pgina hayvonlarni kema  
ichiga Kirgiz” - dedi. Hudovand  
Nuhga kemani qurish uchun aniq  
yo'l-yo'riqlar ko'rsatdi. Shundan  
keyin Nuh  
payg'ambar  
kema

qurishni  
boshladi.





Nuh payg'ambar kema  
qurayotganida,  
odamlar uni mazah  
qila boshlashdi.  
Lekin Nuh  
shunga

qaramay  
kema qurishni  
davom etdi. U  
shuningdek odamlarga  
Hudo haqida gapirar edi.  
Lekin odamlar esa Nuhga  
quloq solmas edilar.



Nuhning Hudoga bo'lgan  
ishonchi buyuk edi. U  
oldin hech yomg'ir  
yo'ganini ko'rmagan  
bo'lsa ham Hudoga  
ishondi. Tez orada  
Kema tayor  
bo'ldi.



U kemaga har bir hayvonning erkak va urg'ochisidan  
ikkitadan juft qilib kiritgizdi. Parranda, chorva,  
yerda qimirlovchi jonivorlarning hammasidan  
ikkitadan olib  
kiritgizdi.




Odamlar Nuhni mashara qila  
boshlashdi va Hudoga qarshi  
gunoh qilishni davom etishdi.  
Bundan tashqari ular Nuh  
bilan birga kemaga  
kirishni rad  
etishdi.





Nihoyat hamma hayvonlar  
kemaga kirgizilgandan keyin,



Nuh  
payg'ambar  
o'z oilasi,  
hotini va  
uchta o'g'illari  
bilan kemaga  
kirishdi va Hudovand  
ularning orqasidan,  
kemaning eshigini  
yopib tashladi.





Yomg'ir 40 kunu  
40 kecha  
yog'a  
boshladi. 40  
kun davomida yer


yuzini to'fon bosdi va suvlar toshib  
ketdi. Yomg'ir baland tog'larni qoplab  
oldi. Yer yuzida harakat qiluvchi  
har bir jonzod halok bo'ldi.




Suvlar toshib kemani  
yerdan yuqoriga ko'tardi.  
Kemaning ichini qorong'ulik  
bosdi va qo'rqinchli edi.  
Lekin kema Nuh  
payg'ambar uchun  
boshpana edi.




5 oydan keyin Hudo yerni quritish uchun shamol yubordi. Suv bora bora yer yuzidan kamayib kema Ararat tog'ligi ustiga kelib to'htab qoldi. Ammo Nuh hali ham kema ichida edi.





Nuh oldidan kaptarni  
chiqarib yubordi. Ammo  
kaptar oyoq qo'yadigan  
joy topolmay yana kemaga  
Nuhning yoniga qaytib keldi.






Bir hafta o'tgandan keyin Nuh kaptarni yana kemadan chiqarib yubordi, kaptar tumshug'ida yangi yulingan zaytun bargini olib keldi. Yana bir haftadan keyin Nuh kaptarni yana kemadan chiqarib yubordi va bu safar kaptar qaytib kelmadi va Nuh yer quriganini tushunib angladi.




Hudovand Nuhga kemani tark etishini  
aytdi va Nuh o'z oilasi va u bilan  
bo'lgan barcha hayvonlarni  
tashqariga olib  
chiqdi.



Nuh kemadan  
chiqqanida o'zini  
ancha yahshiroq,  
his qildi. U  
Hudoga qurbongoh  
qurib o'sha yerda  
oilasi bilan Hudoni  
olqishladi.








Hudovand  
Nuh bilan  
ahd tuzib: "yer  
yuzida boshqa  
hech qachon to'fon  
yubormayman,

Va'damning  
a'lomati kamalak  
bo'lib qolsin" -dedi.

Nuh bilan hotini  
to'fondan keyin  
yangi hayot boshlashdi.  
Ular yana ko'paya  
boshlashdi. Dunyodagi  
barcha halq va  
millatlar

Nuh zuriyotidan  
kelib chiqdi.




Nuh payg'ambar va buyuk to'fon  
Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Ibtido 6-10

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."  
Zabur 119:130






Hikoya tugadi



3



60



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:  
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!  
Yuhanno 3:16

